

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE

*on the theme " **Architecture is the Abode of Time** "which will be held at
Samarkand State Architecture and Construction University*

SOME SUGGESTIONS ON THE USE OF KALAJIK CASTLE IN TOURIST DIRECTIONS

UrSU, arch.f.n. Assoc

Setmamatov Maksud Bekturdievich

He is a 4th year student of the "Architecture" department of UrSU

Rakhimov Elbek Rakhimovich

Daughter, He is a 3th year student of the "Architecture" department of UrSU

Matvapaeva Shahsanam Shokirjon's

Annatsiya: Maqolada Qalajiq qal'a arxeologik yodgorligi atrofida amalga oshirilgan ishlar ko'lami va kelgusida ushbu hududni yanada gullab yashnashi uchun yangicha loyihaviy taklif berish yoritilgan. Qal'aga yaqin hududda 24 soat ishlaydigan infratuzilma obyektlarini loyihalash hamda Qal'a atrofida Xorazm iqlim sharoitiga xos bo'lgan turar joy majmuasini loyihalash va ushbu loyihani sayyohlar yo'nalishida foydalanish istiqbolli reja va takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Xorazm, Qalajiq qal'a, Quyi Amudaryo, Sariqamishbo'yi, Kardaronxos, Kardanaxos, Nukus qal'a, Dout qal'a, Xiva Ichon qal'a, Hazorasp, Qirqqizqal'a, Ayozaqal'a-2, Tuproqqal'a, Qizilqal'a, Katqal'a.

Qalajiq qal'asi O'zbekiston Respublikasining Xorazm viloyati Bog'ot tumanida joylashgan bo'lib, Xiva Ichon qal'a o'rtasida masofa taxminan 30 km.ni tashkil qiladi. Moziydan sado beruvchi Qalajiq qal'asi haqida so'z ketganda Xorazm tarixida iqtisodiyot va madaniyat yuksalib, gullab yashnagan davrlar bilan bir qatorda, bir qancha fojiali hodisalar ham sodir bo'lganligiga tarix guvohlik beradi. Mo'g'ullar bosqinidan biroz oldin Xorazmning ko'pgina shaharlarida bo'lgan O'rta asr sayyohlaridan biri quyidagilarni yozib qoldirgan: «Men yer yuzida Xorazm yeridan ko'ra kengroq tekisliklar va bu yerdan ko'ra odamlar gavjumroq bo'lgan joy bo'lmasa kerak,- deb o'ylayman. Eng muhimi, aholi og'ir mehnatga o'rgangan va oz narsaga qanoat qiladi. Xorazmning ko'pgina qishloqlari shahar ko'rinishida bo'lib, ularda bozorlar, hayot uchun zarur zahiralar va do'konchalar mavjud. Kamdan kam qishloqda bozor yo'q. Xalqning umumiy osoyishtaligi ta'minlangan va u xotirjam kun kechiradi... Men Xorazmning asosiy shahriga o'xshagan, juda ko'p aholi yashaydigan, bu qadar boy va ulug'vor poytaxt shahar dunyoning boshqa hech yerida bo'lmasa kerak, deb o'ylayman...» [1].

1981-1982 yillarda M.Mambetullayev tomonidan Qalajiqda arxeologik izlanishlarni olib borishi natijasida, uning topografik tuzilishi va mudofaa kompleksi tarixiga oid ashyolarni olgan.¹ Yodgorlik barpo qilinishi va rivojlanish jarayoni uchta tarixiy davrdan iboratligi aniqlangan. Birinchi tarixiy davrda kengligi 2,75 m yo'lakli ikki qatorli paxsa mudofaa devor tiklangan, uning janubiy devor uzunligi 213 m, shimolda 184 m, g'arbida 72 m, sharqida esa 114 m. Umumiy maydoni 7 ga. Mudofaa devorlar saqlanib qolgan balandligi 12-14 m [3].

Katta Qalajiq qal'asining bugungi kunda bizgacha saqlanib turgan devorlarining ko'rinishi noto'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lib, qal'a sharqdan g'arbga qarab cho'zilgan. Shimoliy devorining uzunligi 14 m., g'arbiy devori 65 m., janubiy devori 210 m. bo'lib, bu devor IX-XI asrlar o'rtalarida paxsadan qurilgan.

Xorazm vohasi ikki buyuk sahro orasida joylashgan. Shuning uchun qal'alar qum ustiga qurilgan. Qalajiq qal'asi 9 m. balandlikdagi qum ustida joylashgan. Sharqdagi devor o'rtasida 6-7 m balandlikdagi tepalikning o'rni saqlanib qolgan bo'lib, bu yerda darvoza bo'lgan. Eramizning I-II asrlarida qandaydir sabablar bilan tashlab ketish natijasida Katta Qalajiq qal'asi bo'shab qolgan. Eramizning VI-VII asrlarida Qalajiq va uning atrofidagi yerlar o'zlashtirila boshlangan. Shu davrga doir ma'lumotlarga ko'ra shimoliy devorlarning o'rtasida Ko'shk – Saroy solinadi, uning devorlari paxsadan qilingan. Ko'shkning ko'lami 15x20 m. bo'lgan. Ushbu imoratni qurishda xom g'isht ham ishlatilgan. Bu g'ishtlar kattaligi 36x38 sm., qalinligi esa 9-11 sm. ni tashkil etgan. Ko'shkning g'arbiy qismida ikkita xonaning o'rni bo'lib, biri 6x10 m. ni, ikkinchisi 8x12 m. bo'lgan. Bu davrda Qalajiqning faqat Ko'shkida hayot bo'lgan. IX-XI asrlarda Qalajiq atrofi yanada gullab, dehqonchilik rivojlanadi. Tashqi dushmanidan himoyalash uchun Qalajiq qal'asining eski devori ustiga, paxsadan yangi qo'rg'on solinadi. Devorning umumiy balandligi 12-17 m., qalinligi 5-7 m. bo'lgan. Bu davrda Qalajiqning ichki qismida aholi yashamagan, qal'adan faqat tashqaridan kelgan dushmanidan saqlanish uchun foydalanilgan [2].

Qal'a haqidagi ma'lumotlar IX-XII asr Arab fors manbalarida uchraydi. Molifa noma'lum hudud, al-olam asarida u Gadmiskas, al'-Istaxsiy va al'-Maxsidiy asarida Kardaronxos va Gardanxos, Abulg'ozi, Munis va Ogohiy kabi xorazmlik tarixchilar asarlarida esa Kardaronxos nomlari bilan qayd qilingan. Ushbu manbalarining birida u kichik bir shahar bo'lib, atrofi boy dehqonchilik vohasi va qishloqlar bilan o'ralgani yozilgan. Amudaryoning qadimgi o'zanida Xorazm vohasining madaniy hayot markazida joylashgan bu yodgorlik o'zining mil.avv.IV-I asrlarga va o'rta asrlarga oid mudofaa inshootlarini juda yaxshi saqlab qolgan.

Milodiy V-IX asrlar. Amudaryo o'ng va so'l sarxadlarida kechgan ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlarda yuz bergan jiddiy o'zgarishlarni ikki tarixiy bosqichga ajratgan holda yoritish maqsadga muvofiq. Birinchi bosqich. V-VI asr birinchi yarmi va milodiy VI asr ikkinchi yarmi - IX asrlar. Birinchi tarixiy davrda Quyi Amudaryo havzasi va Sariqamishbo'yi sarxamlari geografik holati va etnik munosabatlar manzarasi quyidagicha tasvirda bo'lgan.

Sulton Uvays tog'i atroflari, Qizilqum chegarasi bo'ylab aholi turar joylarida xo'jalik madaniy va etnik jarayonlar abadiy barham topgan. So'l sohil hududida bir qator mikrovohalarda (Tuproqqal'a Xiva), Voyangan (Manoq) (Tuproqqal'a Shovot), (Olmaotishgan-1Yangiariq), Nurum vohasida (Tuzqir-2, Qalaliqir-2) madaniy hayot va etnik jarayon barham topgan. Ikkinchi bosqichda esa Oqchadaryo havzasida magistral kanallarning suv ta'minoti goh-gohda bo'lishi munosabati bilan ayrim aholi turar joylarda madaniy hayot davom etgan (Katta Guldursun, Burgutqal'a arki, Uyuqal'a, Katta va Kichik Qirqqizqal'a, Ayozqal'a-2, Tuproqqal'a arki, Qizilqal'a, Katqal'a (O'ng sohil). So'l sohilda esa (Ichanchal'a, Hazorasp, Sandiqlitepa, Olmaotishgan-2, Qalajiq, Katqal'a (SHovot), Voyangan, Jigarband, Vazir, Shohsanam, Yarbekirqal'a, Zamaxshar, Sadvar, Elxaras, Bo'ldimsoz Mizdahkon) kabi madaniy meros obyektlarida madaniy hayot davom etganligi bois, etnik jarayonlar qisman bo'lsa davom etgan[3].

Qalajiq qal'asi mil.avv. IV asrda Xazarasp, Xiva qal'asi bilan bir paytda Xorazmning ko'chmanchilari uchun qurilgan harbiy qal'a sifatida vujudga kelgan. Qalajiq qal'a 4 bosqichli tarixga ega. Birinchi bosqich mil.avv. IV asrdan milodiy IV asrgacha qal'a asosan chegara mudofaa tizimi vazifasini bajargan, keyingisi milodiy VI-VIII asrlarda rivojlanishi bo'lib, eng rivojlangan davri IX-XIII asr mo'gul bosqiniga bo'lgan davr hisoblanadi. Arab sayyohi al'-Muqaddasiyning ma'lumotiga ko'ra Kardaronxos Xorazmning yirik shaharlaridan biri hisoblanib atrofidan yirik Kardaronxos nomi bilan bog'liq bo'lgan ulkan kanal oqib o'tganligini ta'kidlaydi. Qalajiq qal'aning yonidan o'qib o'tgan Kardaronxos kanali Xazarasp qala'sidan Xivagacha va Amudaryogacha bo'lgan hududlarda kema qatnovi yo'lga qo'yilib, savdo ishlari kemalar orqali yo'lga qo'yilganligini ta'kidlab o'tgan. Qal'ada shaharning 2 ta arxeologik yodgorliklar natijasida topilgan qismlari sharqda darvozasi bo'lsa, shimoliy qismi hozirgi tepaligida shahar hokimining qarorgohi bo'lganligi tadqiqotlar natijasida aniqlangan.

Qal'aning 4-bosqichi Xiva xonligiga to'g'ri keladi. Ogohiy, Munis tarixiy asarlarida 1787 yilda Mug'hammad Aminxon Inoqqa qarshi Xiva Qo'ng'irotlari birinchi vakili shunga qarshi qarshi qo'zg'alon ko'tariladi. Ana shu qo'zg'alon ko'targan paytda qo'zg'alon bostirilib uning aholisi Qalajiqqa olib kelib joylashtirilganligi ta'kidlanadi. Ana shundan aholi ichida bu nom hozirgacha saqlanib qolgan Qalajiq qal'a atrofidagi ko'l umumiy Nukus ko'li deb atalgan. Shu joyda yashaydigan elotlar o'zlarini Nukus urug'idan deb atashadi. Bu Qoraqolpog'iston Nukusi emas bu 92 ta o'zbek urug'idan bittasi Nukus deb atalganidan nomlangan. Oxirgi bosqichda Nukus qal'a nomi bilan ham mashhur bo'lgan. Shuning uchun ham bu Qalajiq qal'a yodgorligining 4 ta bosqichda nomlanishi bor. 1-Kardaronxos, 2-Gardanxos, 3-Nukus qal'a, 4-Xalq ichida Dout qal'a deb nomlangan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida saqlanib qolgan qismiga Qalajiq qal'a deb nom berilgan bo'lib, buning ma'nosi kichik qal'a degani. Bu katta qal'a sifatida savdo-sotiq qilingan XIII asrda mo'g'ul bosqini davrida vayron qilingan[6].

Xorazmdagi tarixiy va madaniy yodgorliklar o'ziga xos takrorlanmas me'moriy yechimlarga ega bo'lib, katta tarixiy va ma'naviy ahamiyatga egadir.

Ularni yetarli texnik darajada saqlash va kelajak avlodlarga umrboqiyiligini ta'minlagan holda yetkazib berish barchamizning muqaddas burchimizdir. "Tarixiy obidalarini saqlash uchun maxsus chora-tadbirlar qo'llanilmasa, ularning buzilishi qaytmas jarayondir",- deb yozgan prof. E. M. Gendel[4].

Keyingi yillarda obidalarining texnik holatini o'rganishga qaratilgan izlanishlar natijalari va ularni ekspluatatsiya qilish davrida to'plangan arxiv ma'lumotlar shuni ko'rsatayaptiki, viloyatdagi ko'pchilik me'moriy obidalarining texnik holati yomonlashgan, ya'ni ularning ayrim qismlarida notekis cho'kishlar, devorlarida yoriqlar va buzilishlar paydo bo'lgan, baland minoralarining vertikalidan sezilarli og'ishlari va notekis cho'kishlari ham kuzatilmoqda. Bu holatlarning asosiy sabablari atrof-muhitda vujudga kelayotgan texnogen omillardir.

Ayrim tarixiy obidalar shu bugungi kungacha qayta ta'mirlanmagan, o'sha paytda qanday tiklangan bo'lsa, shu holatda turibdi, obidalarining ko'pchilik qismi tabiiy ofatlar va qirg'inbarot urushlar ta'sirida qulab tushgan. Shu bilan birga paxsa devorlar ob-havo, yog'ingarchiliklar, namlanishlar ta'sirida tarixiy yodgorliklar ayanchli ahvolga kelib qolgan (1-2-rasm).



1-Rasm. Qalajiqlik qal'a tashqi ko'rinishi

Qalajiqlik qal'a hududi aholidan 2 km uzoqda joylashgan bo'lishiga qaramay, turistik yo'nalishlarni rivojlantirish uchun juda katta imkoniyatlarga egadir. Shunday ekan ushbu qal'a atrofidagi o'zgarishlarga qo'shimcha tarzda loyihaviy takliflarimizni tavsiya qilamiz. Qalajiqlik qal'ani turistik yo'nalishga kiritishdan tortib, qal'aga bo'lgan e'tibor 2000 yildan boshlangan ilmiy tadqiqot mavzularidan o'rin olgan bo'lib, bu mavzuda Moziydan sado (2007 y), SamDAQI Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi (2010 y), «Каракалпакистан» Нукус Халкаро илмий –назарий анжуман материаллари (2011y), TAQI Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi (2015 y) va Xorazm Ma'mun akademiyasining Axborotnomasi (2020/8, 2023/2 y) kabi nufuzli jurnallarda ilmiy maqolalar chop qilingan. Barcha maqolalar mazmuni va g'oyasi shu qal'ani turistik yo'nalishda rivojlantirib jamiyatimiz tarixida kelgusi avlodlarimiz uchun iz qoldirishdan hamda doimiy tashrif markaziga aylantirishdan iboratdir.

Qalajiqlik qal'a hududida tadbirkorlar tomonidan katta ko'lamdagi ishlar amalga oshirilmoqda. Oldingi tahlillar asosida suratga olingan ayrim qurilayotgan bino va inshootlar fotosuratlarini havola qilamiz (3-4-rasm).



2-Rasm. Qalajiq qal'a ichki ko'rinishi



3-Rasm. Qalajiq qal'a hududidagi qo'rg'on devor bilan o'ralgan ochiq ayvonlar

Ushbu Qalajiq qal'a atrofida aholi yozning iyun, iyul va avgust oylarida madaniy hordiq chiqarish maqsadida ushbu joyga borib dam olishni xush ko'rishadi. Shunday ekan tadbirkorlarimiz aholiga manzur bo'lgan o'tirish imkoniyatlarini yaratish maqsadida ochiq ayvonlar tashkil qilingan.

Ushbu ayvonlarda dam oluvchilar katta ko'l manzarasini tomosha qilib, maroqli dam olish imkoniyatiga ega bo'lishmoqda.

Qalajiq qal'adagi tadbirkorlar tomonidan qurilgan binolar kelajagini ko'zlasak, ushbu hudud aholi dam olishiga moslashtirilmoqda. Shunday ekan ushbu ko'l suvini butkul tozalash, sho'rlanish holatidagi tuzlarni butunlay olib tashlab chuchuk suv havzasini yaratish lozim. Ko'l atrofini bir metr balandlikka ko'tarish va atrofini silliq yumaloq yoki boshqa shakllardagi tog' toshlari bilan chiroyli qilib qoplash va uning atrofida alleya yo'lak hosil qilib piyodalar sayr qilishlari uchun sharoitlar yaratish. Bu bilan atrofda yo'laklar qirg'oqlariga bugungi kun sharoitidan kelib chiqib, 2 tonnalik plastik idishlarni yoki shunday hajmdagi temirbetondan tayyorlangan idishlarni yer ostiga ko'mib, maxsus unumdor tuproqlarga to'ldirib, ushbu hudud iqlimiga xos bo'lgan daraxtlar, landshaft ko'kalamzorlar tashkil qilishda ushbu sohada ilmiy ish qilgan olimlar tajribasiga tayanib ish tutish lozimdir (5-rasm).



4-Rasm. Qalajiq qal'a hududidagi ochiq ayvonlar



5-rasm. Qalajiq qal'a ko'li

Bu ko'l markazidan yo'laklar o'tkazib, ushbu yo'lakda sayyohlar sayr qilib yurishini tashkil etish hamda tirik baliq boqish yoki ushbu ko'lda kasadka balig'ining robot maketini 1:1 masshtabda yasab, ushbu maketni suvga 5 minut sho'ng'ib yana suv sirtiga chiqib turadigan qurilmaga moslab diarama yaratish g'oyalari amalga oshirilsa, ushbu maskan yanada gullab yashnashiga zamin yaratiladi[5].

Bu maskan ko'rki suv havzasi bilan yoki ko'klamzorlashtirilgan hudud bilan bevosita bog'liqdir. Hozircha ushbu hududning magnit maydoni ko'l va undagi suvning mavjudligidir. Ushbu hududda daraxt o'stirish va ko'klamzorlashtirish uchun unga alohida suvni chuchuklantirishga hamda ushbu ko'lda baliq boqishga qaratilgan g'oyalarni qisqa muddatlarda amalga oshirish lozimdir.




6-rasm. Chodra hovli.

Qalajiq qal'asida qurilgan bino va inshootlar ro'yxati

1.Mehmonhona	7. Bostirma	11.O'tov	18.ABK
2.Bostirma	8. Hojatxona	12. Hojatxona	18.KPP
3. Do'kon	9. Chodra	13. Dushxona	19.Qozonxona
4. Do'kon	10.Avtomobillar turish joyi	14. O'tov	20.Basseyin
5. Bostirma	(a,b,v,g,d)	15.Tuyalar turish xonasi	21.Uzun devor (2500 m)
6. Do'kon	10. Bostirma (a,b,v,g,d)	17.Issiqxona	22.Darvoza (8 ta).

Bosh rejada mavjud ko'l va uning atrofida infratuzilma obyektlari qurilgan binolar tasvirlangan. Barcha qurilayotgan bino va inshootlar aholining dam olish vaqtini mazmunli o'tkazishiga qaratilgan bo'lib, bugungi kungacha ushbu hududni obodonlashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar va amaliy loyihalar amalga oshirilmoqda.7-rasm.



7-Rasm. “Qalajiq qal’a” joylashgan hudud holat tarhi

Qalajiq qal’a atrofida aholi yashagani tarixiy manbalarda mavjudligini inobatga olib kelgusida shu hududga yaqin joyda kichik manzilgohlar sifatida kam qavatli turar joy majmuasini tashkil qilishda 4 ta qismga bo’lib loyihalash amalga oshirilishi nazarda tutilgan. Bunda avtomobillar turishi uchun alohida joylar belgilangan bo’lib, tashrif buyuruvchilarga Xorazm iqlim sharoiti uchun bino ichki tuzilishi turlicha yechimga ega bo’lgan turar joylarda istiqomat qilish imkoniyati yaratiladi. Bu binolar joylashuvi mo’tadil havo oqimini inobatga olgan xolda Qo’rg’on tipi va Xiva uslubidagi turar joy binolari amalga oshirilishi nazarda tutilgan (8-9-rasm).

Shu paytgacha shu zaminda tavallud topgan muallif tomonidan ushbu qala’ani ta’mirlash bo’yicha bir qancha quyidagi takliflar berildi va manbalarda yoritilmoqda:

1. Ichini atrofdagi qum bilan tekislab, qal’ani devorini yengil konstruksiya bilan tiklab, darvoza o’rnatib, devor ustini yomg’irdan himoyalash vositalari bilan konservatsiya qilish;
2. Qalajiq qal’a qal’asini ta’mirlash va ichida tarixiy ochiq osmon ostidagi muzey qilish (yerto’la uylarini qurish) inter’erida shu davr odamlari manikenini qo’yish;
3. Suv havzasi atrofida cho’milish uchun imkoniyatlarga ega bo’lgan infratuzilma obyektlarini tashkil etish va atrofini obodonlashtirish bo’yicha loyihasini tayyorlash.
4. Suv havzasi suvini tozalab 1:1 masshtabda kasadka (baliq) modelini yasab, unda suv purkagichlar tashkil qilib, suv ostiga kirib chiqib turadigan qilish. Barchani shu hududga dam olishga jalb qiladigan dizayn loyiha qilish kerak;
5. Atrofidagi baliq havzalaridan qarmoq bilan baliq tutish va pishirib tanovur qiladigan sharoitlar yaratish;
6. Qal’aga yaqin 2 km joyini asfalt qilib yoritish chiroqlarini quyosh batereyalari bilan yoritish, 24 soat ishlaydigan maishiy xizmat obyektlarini tashkil qilish;
7. Atrofidagi kanaldan suv olish va purkagichlar orqali sho’rda o’sadigan daraxtlar navlaridan landschaft dizayni tashkil etish;
8. Qal’aga yaqin joyda turar joy majmuasini sayyohlar uchun tashkil etish va unda urf-odatlarimiz o’zbekona yashash tarzimizni tarannum etish.

Yuqorida qayd qilingan takliflar negizida Qal’ani ta’mirlab atrofiga kuzatuv kameralari o’rnatish va integratsiya qilish. Muzey tashkil etib pullik xizmatni yo’lga qo’yish. Qal’a hududidagi ko’ldan dam olish maqsadida foydalanish, Ichon qal’ada har 2 yilda P.Maxmud xotirasiga bag’ishlab o’tkaziladigan “Bahodirlar” sport musobaqalari va boshqa tadbirlarni shu qal’ada o’tkazish. U bilan atrofidagi tadbirkorlar yaratgan maishiy xizmat ko’rsatish binolaridan unumli foydalanish imkoniyatiga ega bo’lish, turizm yanada rivojlantirishdir.



8-Rasm. Qalajiq qal'aga yaqin hududda kam qavatli turar joylar loyihasi



8-Rasm. Qalajiq qal'a hududiga loyihaviy taklif

Shu maskan obod bo'lsa, bobokalonlarimizning ilmiy manbalardagi Xorazm shaharsozligi, bino va inshootlarining tuzilishi va tipologik yechimlaridagi tahlillar ushbu o'lkada ilmiy ijod qilgan oqila insonlar fikr va g'oyalari orqali shakllanganligi, ushbu hududning 50 yil oldingi holati va 50 yildan keyingi holati to'g'risidagi o'zgarishlar, asrlar o'tib qanday qiyofa kashf etib, gullab, yashnab go'zal bir maskanga aylanishi to'g'risidagi fikr va mulohazalarimizni yoshlarimiz manbalarda yoritilgan maqolalardan yanada zavq olishlariga zamin yaratiladi.

Adabiyotlar:

1. П.Ш.Захидов. Хива альбоми, Тошкент 1994 й.37-41 б.
2. Ш. Матрасулов. Қалажиқ қалъасининг археологик тадқиқоти ҳисоботи 2002.
3. Қ.Собиров. Хоразмнинг қадимги ва ривожланган ўрта асрлар даври мудофаа иншоотлари (*милоддан аввалги VI милодий XV асрлар*)мавзусидаги диссертацияси. Урганч 2022 й.
4. Bog'ot tumani hududida joylashgan "Qalajiq qal'a" obidasining qolgan qismini qayta ta'mirlash va ishga tushirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi. UrDU qoshidagi "Urganch Ma'mun qurilish ta'mirlash korxonasi" 2010 y.
5. Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси.2024/2 у.
6. <https://www.youtube.com/watch?v=RoK97Cvz8oE> (Qudrat Masharipov t.f.n.dots.)